

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
TOSHKENT FILIALI**

ESIRGAPOVA UMIDA XASANOVNA

**KO'CHAT QALINLIGI VA MA'DAN O'G'ITLAR ME'YORINI XASHAKI
LAVLAGI (*Chenopodiaceae*, *Beta vulgaris*.S) NING O'SISHI,
RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI
(Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida)**

06.01.08 – O'simlikshunoslik

**Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Esirgapova Umida Xasanovna

Ко‘chat qalinligi va ma‘dan o‘g‘itlar me‘yorini xashaki lavlagi (Chenopodiaceae, Beta vulgaris.s) ning o‘sishti, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri (Samarqand viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida) 3

Эсиргапова Умида Хасановна

Влияние густоты стояния и нормы минеральных удобрений на рост развитие и урожайность кормовой свеклы (Chenopodiaceae, Beta vulgaris.S) (в условиях типичных сероземов Самаркандской области) 21

Esirgapova Umida Khasanovna

The effect of seedling density and mineral fertilizer rates on the growth, development, and yield of fodder beet (Chenopodiaceae, Beta vulgaris.S) (under the conditions of typical grey soils in the Samarkand region)..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
TOSHKENT FILIALI**

ESIRGAPOVA UMIDA XASANOVNA

**KO‘CHAT QALINLIGI VA MA‘DAN O‘G‘ITLAR ME‘YORINI XASHAKI
LAVLAGI (*Chenopodiaceae*, *Beta vulgaris*.S) NING O‘SISHI,
RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI
(Samarqand viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida)**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Qx1756 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samaguni.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xalikov Baxodir Meylikovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xonkulov Xusniddin Xolikulovich
qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori, dotsent

Raxmatov Anvar Mamatovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «17» 12 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16; faks: (+99866) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz; Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti bosh binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali)

Dissertatsiya bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 106-raqami bilan ro'yxatga olingan). (141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «5» 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil «02» 12 dagi 9 -raqamli reyestr bayonnomasi).



Sh.X.Rizayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
raisi, q.x.f.d., professor

I.X.Amanturdiyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent

S.T.Sanayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda “dunyo bo‘yicha xashaki va qand lavlagi yetishtiriladigan maydonlar hajmi 30 mln. 862 ming gektarni tashkil etib, eng ko‘p ekiladigan maydon Amerika qit‘asida 14 mln. 150 ming.gani, Osiyoda 11 mln. 524 ming.ga, Yevropada 2 mln. 963 ming.ga, Afrikada 1 mln. 816 ming.ga va Okeaniyada 409 ming.gani tashkil etadi. Yetakchi davlatlar Braziliya (9 mln. 971 ming.ga), Hindiston (5 mln. 159 ming.ga), Tailand (1 mln. 495 ming.ga), Xitoy (1 mln. 365 ming.ga), Pokiston (1 mln. 264 ming.ga), Rossiya (994 ming.ga) hisoblanadi”¹. Dunyo qishloq xo‘jaligi amaliyotida chorvachilikda to‘yimli yem-xashak ba‘zasini yaratish borasida yangi innovatsion yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilib, ishlab chiqarishda joriy etilmoqda. Ta’kidlash kerakki, chorvachilikni to‘yimli yem-xashak bazasi bilan ta’minlashda ildizmevali ekinlardan xashaki lavlagi alohida o‘rin tutadi. Shu boisdan xashaki lavlagini yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi mamlakatlari xashaki lavlagi yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish orqali yuqori va sifatli hosil olishda ijobiy natijalarga erishmoqda. Shuningdek, chorvachilik uchun to‘yimli va shirali ozuqa yetkazib berishda iqlimning global isishi, qurg‘oqchilik, yerlarning degradatsiyaga uchrashi, tuproq unumdorligining pasayishi va suv resurslarining kamayishi, xashaki lavlagini o‘g‘itlash hamda sug‘orishda resurstejovchi texnologiyalarni joriy etish, turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos navlarini tanlash sifatli hosil yetishtirishda maqbul ekish me‘yorlari va ma‘dan o‘g‘it me‘yorlarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturda chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini jadal rivojlantirish, respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalar belgilangan. Dasturga ko‘ra, mamlakatimizda xashaki lavlagi yetishtirishni ko‘paytirish maqsadida 2022-2026 yillarda xashaki lavlagi ekin maydonlarini bosqichma-bosqich oshirib borish ko‘zda tutilgan. Shundan kelib chiqib, xashaki lavlagi chorvachilikda ozuqa ba‘zasini ta’minlashda beqiyos o‘simlik bo‘lib, Samarqand viloyatining tipik bo‘z tuproqlari sharoitida undan mo‘l va sifatli hosil olishda parvarishlash agrotexnikasini ilmiy asosda o‘rganish hozirgi kunda qishloq xo‘jaligidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi² PQ-120-son hamda 2023-yil 24-avgustdagi “Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va naslchilik sohasini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi³ PQ-285-son

¹ <https://www.reliefweb.int>

² <https://lex.uz/docs/-5858728>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6583141>

qarorlari va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo bo'yicha eng ko'p xashaki lavlagi ekiladigan mamlakatlar sirasiga Braziliya, Hindiston, Tailand, Xitoy, Pokiston, Rossiya, Amerika, Meksika kabi mamlakatlar kiradi. Ushbu mamlakatlarda xashaki lavlagining yangi navlarini ekologik sinovdan o'tkazish, har bir mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga mos navlarni tanlash va ularni to'g'ri joylashtirish, yuqori va sifatli hosil yetishtirish, mahsulotni saqlash, qayta ishlash va eksport qilish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mamlakatimizda va xorijda xashaki lavlagini asosiy va takroriy ekin sifatida ekib parvarishlash agrotexnikasini mahalliy olimlardan I.Massino, Z.Umarov, A.Dementeva, X.Romanov, E.Gorelov, N.X.Xalilov, X.Botirov, B.Xalikov, B.Allashov, xorijiy olimlardan I.Gunter, M.Hudkova, D.James, Z.Josef, M.Kapur, J.Miloslav, M.Nagy, V.Potfild, D.Pinzariu va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Ammo, Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida xashaki lavlagining parvarishlash agrotexnikasi yetarlicha o'rganilmaganligi sababli, ushbu tuproq iqlim sharoitida uning parvarishlash agrotexnikasini o'rganish va ishlab chiqarishga joriy etish qishloq xo'jaligidagi dolzarb va muhim masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № 01980004512-raqamli "Yuqori hosilli va sifatli dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ilmiy jihatdan asoslangan, ekologik toza mahsulot yetishtirishni ta'minlovchi yangi agrotexnologiyalarni ishlab chiqish" mavzusining alohida bir bo'limi sifatida bajarilgan (2023-2025 yy.).

Tadqiqotning maqsadi. Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida xashaki lavlagi ildizmeva va bargidan mo'l, sifatli hosil olishda maqbul ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'itlar me'yorlarini aniqlash hamda ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

xashaki lavlagining maqbul ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'itlar me'yorini aniqlash;

xashaki lavlagini tuproqning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalariga ta'sirini o'rganish;

ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlarini xashaki lavlagini unib chiqishi va ko'chat qalinligiga ta'sirini aniqlash;

ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlarini xashaki lavlagini bo'yi, barglar soni va barg yuza maydoniga ta'sirini o'rganish;

ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlarini xashaki lavlagining ildizmeva uzunligi, massasi va diametriga ta'sirini o'rganish;

o'rganilgan omillarning xashaki lavlagining ildizmeva va barg hosildorligi hamda sifatiga ta'sirini aniqlash;

xashaki lavlagini ozuqa ekini sifatida yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni tahlil etish va ishlab chiqarishga tavsiyalar berish;

Tadqiqotning obyekti sifatida sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida ozuqa ekin sifatida xashaki lavlagini «O'zbekiston-83» navi va ma'dan o'g'itlar me'yorlari olingan.

Tadqiqotning predmeti xashaki lavlagini ko'chat qalinligi, ma'dan o'g'itlar me'yori, mazkur omillarning ularning o'sishi, rivojlanishi, ildizmeva va barg hosildorligi va sifatiga ta'sirini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari dala va laboratoriya tadqiqotlari, o'simlikdagi biometrik va fenologik kuzatuvlar hamda turli tahlillar «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур», «Методы агрохимических анализов почв и растений», «Методы агрофизических исследований» «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari», «Основные положения определения экономической эффективности использования в сельском хозяйстве результатов НИР, новой техники и изобретения, рационализаторских предложений» kabi uslubiy qo'llanmalar asosida amalga oshirilgan. Tajribalarda olingan natijalarning statistik tahlili B.A.Dospexov uslubi bo'yicha bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida xashaki lavlagidan mo'l va sifatli ildizmeva hamda barg hosili olishda maqbul ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlari aniqlab berilgan;

tadqiqot jarayonida urug'larni laboratoriya va dala sharoitlarida unib chiqish darajasi, ko'chatlar soni hamda ularning nobud bo'lish darajasi aniqlangan;

tadqiqotda xashaki lavlagining biologiyasidan kelib chiqib, ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'itlar me'yorlarini ta'siri bo'yicha mos ravishda o'sish va rivojlanish fazalari kuzatilib, hisob-kitob ishlari olib borilgan;

ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlarini xashaki lavlagi ildizmeva va barg hosildorligi hamda sifatiga ta'siri aniqlab berilgan;

xashaki lavlaginini maqbul ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'itlar me'yorida yetishtirishda iqtisodiy samaradorlik hisoblangan hamda yetishtirish agrotexnikasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlar sharoitida faoliyat olib boruvchi fermer xo'jaliklari, klasterlar va dehqon xo'jaliklari uchun xashaki lavlagi ildizmeva va bargidan mo'l va sifatli hosil olish maqsadida ularning maqbul ko'chat qalinligi hamda ma'dan o'g'itlar me'yorlari aniqlab berilgan va ishlab chiqarishga joriy etish uchun parvarishlash agrotexnikasi elementlari ishlab chiqilgan;

xashaki lavlagining maqbul ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'itlar me'yorlari aniqlanib, ishlab chiqarishga tavsiyalar berish asosida mazkur ekinning ishlab chiqarish xarajatlari 15-20 % ga kamaygan, ildizmeva hosildorligi 10-15 % ga oshgan;

Tadqiqotdan olingan natijalar Respublika qishloq xo'jaligi oliy o'quv

yurtlarida, qishloq xo'jaligi texnikumlarida, kollejlarda "Agronomiya" fanidan o'qitishda foydalanish tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi laboratoriya va dala tajribalari uslublaridan foydalanilgan holda olingan ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berilishi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan solishtirilganligi, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalarning asoslanganligi, ilmiy va amaliy natijalar mutaxassislar tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilganligi va izlanishlar natijalari amaliyotda keng qo'llanilganligi, tadqiqotlar natijalari respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, dissertasiya natijalari Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan ilmiy nashrlarda chop qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlariga bog'liq ravishda xashaki lavlagini urug'larini unib chiqish darajasi, ko'chat qalinligi, turli me'yorlarda qo'llanilgan ma'dan o'g'itlarni uning o'sishi, rivojlanishiga ta'siri va mo'l va sifatli hosil olishdagi muhim omillar ilmiy natijalar asosida asoslab berilgan. Natijada ildizmeva hosildorligi 10-15 % ga, barg hosildorligi 8-10 % ga oshgan, ildizmeva va bargdagi ozuqaviy sifat ko'rsatkichlari 8-10 % ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, xashaki lavlagining maqbul ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'itlar me'yorlari aniqlanib, ishlab chiqarishga tavsiyalar berish asosida mazkur ekinning ishlab chiqarish xarajatlari 20-25%ga kamaygan, ildizmeva hosildorligi 15-20 % ga oshgan;

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlarining xashaki lavlagini o'sishi, rivojlanishi va ildizmeva hosildorligiga ta'siri (Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida) bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

xashaki lavlagini maqbul ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlarini qo'llash yuzasidan «Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida xashaki lavlagini yetishtirish bo'yicha tavsiyanoma» ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025-yil 27-avgustdagi № 05/06-04498-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma dehqon va fermer xo'jaliklarida xashaki lavlagi yetishtirishda qo'llanma sifatida keng foydalanilmoqda;

Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida xashaki lavlagini parvarishida ko'chat qalinligini gektariga 110-120 ming dona qoldirib, mineral o'g'itlarni NPK 200:140:100 kg/ga me'yorida qo'llash agrotexnologiyasi Payariq tumanida 3,5 gektar maydonda joriy qilingan (Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025 yil 27 avgustdagi №05/06-04-498-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ildizmeva hosildorligi 10-15 % ga, barg hosildorligi 8-10 % ga oshgan, ildizmeva va bargdagi ozuqaviy sifat ko'rsatkichlari 8-10 % ga yaxshilanganligiga erishilgan.

Samarqand viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida xashaki lavlagini parvarishida ko'chat qalinligini gektariga 90-100 ming.dona qoldirib, parvarishida

mineral o'g'itlarni NPK 160:120:80 va NPK 200:140:100 kg/ga me'yorlarida qo'llash agrotexnologiyasi Payariq tumanida joriy qilingan (Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2025 yil 27 avgustdagi №05/06-04-498-sonli ma'lumotnomasi). Buning natijasida, xashaki lavlagidan tegishlicha 673,5 va 674,0 s/ga ildizmeva hosili olinib, ko'chat qalinligi gektariga 110-120 ming dona bo'lgan, ma'dan o'g'itlar NPK 160:120:80 kg/ga me'yorida parvarishlanganga nisbatan 16,6-55,9 s/ga yuqori bo'lib, shartli sof foyda 14846606 so'm/ga, rentabellik darajasi esa 83,7 % gacha oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari har yili Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi Samarqand davlat veterinariya medisinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan, hisobotlar institutning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy tadqiqot natijalari 2 ta xorijiy va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti batafsil keltirilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi keng yoritilgan, izlanishlarning amaliy natijalari va ularning ishonchliligi ochib berilib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati batafsil bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, aprobatsiya va nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning hajmi va tarkibi keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyaning **“Xashaki lavlagini xalq xo'jaligidagi ahamiyati, biologiyasi va turli ko'chat qalinligi hamda mineral o'g'itlash agrotexnologiyalari bo'yicha xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi yuzasidan xashaki lavlagining biologik xususiyatlari, xalq va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, morfologiyasi va biologik xususiyatlari hamda hosildorligi bo'yicha bugungi holat va rivojlanish istiqbollari, parvarishlash agrotexnikasi, o'sishi, rivojlanishi va

hosildorligiga ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'itlar me'yorlarining ta'siri ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, xorijiy, MDH mamlakatlari va O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilib tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazish sharoiti va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba o'tkazilgan hududning iqlim sharoitlari, tuproq sharoitlari, tajriba o'tkazish uslublari, o'rganilgan navning biologik tavsifi, tajriba dalasida qo'llanilgan agrotexnik tadbirlar batafsil bayon etilgan.

Tajribalar o'tkazilgan yillarning ob-havo sharoiti tahlil qilinganda havo harorati tajriba o'tkazilgan 2023-yilda o'rtacha 14,2°C ni, 2024-yil 16,5°C, 2025-yilda esa 16,1°C ekanligi kuzatilgan. Ekish muddati aprel oyida uch yillik ma'lumotga ko'ra o'rtacha 15,7; 15,3; 14,9°C ni tashkil etgan. Havoning nisbiy namligi xashaki lavlagining vegetatsiya davrida uch yillik o'rtacha 55,9 % bo'lib, uch yillik o'rtacha ma'lumotlarga nisbatan qaraganda 2024-yilgi o'rtacha nisbiy namlik 7,3 % ga yuqori bo'lishi ta'kidlangan. Tadqiqotlar olib borilgan yillardagi yog'ingarchilik miqdori 2023-yilda 304,4 mm ni tashkil etib, o'rtacha uch yillik yog'ingarchilikka qaraganda 35,5 mm past bo'lgan. 2024-yilda yog'ingarchilik miqdori 406,7 mm ni tashkil etgan bo'lsa, uch yillik yog'ingarchilikka nisbatan 120,9 mm yuqori bo'lganligi kuzatilgan. 2025-yil yilda bu ko'rsatkich esa 329,6 mm tashkil etgan.

Tajriba dalasi tuproqlari mexanik tarkibi bo'yicha o'rta qumoq, gumus miqdori haydov 0-30 sm qatlamda 0,918 %, pastki qatlamga tomon kamayib borgan. Haydov (0-30) va haydov osti (31-60) qatlamda yalpi azot mos ravishda 0,090 va 0,063 %, pastki qatlamda uning miqdori ham kamayadi. Yalpi fosfor miqdori 0,168-0,142 %, kaliy 1,514-1,139 % bo'lib, ularning eng yuqori miqdori haydov qatlamda kuzatilgan. Fosfor va kaliyning harakatchan shakli mos ravishda 25,1-18,5 va 220-180 mg/kg ni tashkil etgan. Samarqand viloyati tipik bo'z tuproqlari sharoitida xashaki lavlagini parvarishlash bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida agrotexnik tadbirlar olib borilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlarini tuproq agrofizik va agrokimyoviy xossalari, xashaki lavlagining o'sishi, rivojlanishi, ildiz va barg hosili hamda ularning ozuqaviy sifat ko'rsatkichlariga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida tuproqning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalari, xashaki lavlagining unib chiqishi va ko'chat qalinligi, barglar soni va massasi, barg yuza, barglarining quruq massa to'plashi, ildizmevasining uzunligi va diametri, ildizmeva massasi va quruq massa to'plashi, ildizmeva va barg hosildorligi, xashaki lavlagi ildizmevasi va bargining ozuqaviy sifat ko'rsatkichlari tahlil qilingan.

Tuproqning dastlabki agrokimyoviy holati bo'yicha 2023-yilda olingan ma'lumotlarga ko'ra, tuproqning haydov (0-30 sm) qatlamida gumus miqdori 0,918 % ni, haydov osti qatlamida esa (30-50 sm) 0,871 % ni, umumiy azot miqdori esa qatlamlar bo'yicha tegishli ravishda 0,090 %; 0,063 % ni, fosfor miqdori 0,168 %; 0,142 % ni, kaliy miqdori esa 1,514 %; 1,139 % ni, harakatchan shakllari bo'yicha tuproqning 0-30 sm qatlamida nitratli azot miqdori 10,1 mg/kg ni (juda past), harakatchan fosfor 25,1 mg/kg ni (past), almashinuvchi kaliy 220 mg/kg ni (o'rtacha) tashkil etgan.

Tajribaning amal davri oxirida olingan ma'lumotlarga ko'ra, ko'chat qalinligi gektariga 70-80 ming dona bo'lgan variantlarida (1, 2, 3, 4-variant) tuproqdagi gumus miqdori 0,003 % dan 0,010 % gacha kamaygan bo'lsa, gektariga 90-100 ming bo'lgan 5, 6, 7 va 8-variantlarda mazkur ko'rsatkich 0,003 % dan 0,013 % ni, 9, 10, 11 va 12-variantlarda esa tegishli 0,008 % dan 0,015 % gacha kamayganligi aniqlangan. Tuproqdagi umumiy azot miqdori esa yuqorida keltirilgan variantlar bo'yicha tegishli 0,005-0,011 %; 0,008-0,015 %; 0,011-0,018 % gacha kamayganligi aniqlangan. Fosfor va kaliy elementlarini miqdori bo'yicha ham yuqoridagi qonuniyatlar takrorlangan. Oziqa moddalarning harakatchan shakldagilarida ham mazkur qonuniyat kuzatilib, tuproqdagi nitratli azot miqdori dastlabki miqdorga nisbatan ko'chat qalinligi 70-80 ming/ga bo'lgan variantlarda 0,1-1,7 mg/kg, 90-100 ming/ga bo'lgan variantlarda 0,3-2,0 mg/kg, 110-120 ming/ga bo'lgan variantlarda esa 0,6-2,1 mg/kgni tashkil etgan. Tuproqdagi fosfor miqdori esa mos ravishda 0,5-0,9 mg/kg; 1,0-2,2 mg/kg; 0,6-2,1 mg/kg.gacha kamayganligi aniqlangan.

Tajriba qo'yishdan oldin har yili tajriba dalasi tuprog'ining hajm massasi o'rganib borilgan. Tadqiqotning dastlabki, 2023-yilida tajriba dalasidan olingan tuproqning haydov qatlamida amal davri boshida hajm massa o'rtacha $1,345 \text{ g/sm}^3$ ni, haydov osti qatlamida esa $1,407 \text{ g/sm}^3$ bo'lganligi aniqlangan.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, xashaki lavlagini parvarishida mineral o'g'itlarni gektariga NPK 200:140:100 kg/ga me'yori berilgan variantlarda tuproq hajm massasi boshqa variantlarga nisbatan kamroq zichlashganligi kuzatilgan. Masalan, tajribaning ko'chat qalinligi gektariga 70-80 ming.dona bo'lgan variantlarida mineral o'g'itlarning NPK 120:90:60 kg/ga me'yori berilganda hajm massa dastlabki ko'rsatkichga nisbatan $0,042 \text{ g/sm}^3$ ga, NPK 160:120:90 kg/ga berilganda $0,030 \text{ g/sm}^3$ ga, NPK 200:140:100 kg/ga berilganda esa $0,008 \text{ g/sm}^3$ ga oshganligi aniqlangan. Xuddi shunday ma'lumotlar ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming dona bo'lgan variantlarda ham kuzatilib, mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 0,047; 0,042; $0,022 \text{ g/sm}^3$ ni, 110-120 ming dona bo'lganda esa mos ravishda 0,067; 0,050; $0,025 \text{ g/sm}^3$ ni tashkil etgan. Tadqiqotning 2024 va 2025 yillarida olingan natijalarida ham xuddi shunday qonuniyatlar kuzatilgan.

Tajribada xashaki lavlagini "O'zbekiston-83" navini 1-reproduksiya urug'lari ekilgan. Tajriba o'tkazilgan yillar davomida ekish ishlari ob-havo sharoitidan kelib chiqib, yillar bo'yicha mos ravishda 13.04.23, 20.04.24, 08.04.25 kunlari tuproqning 5-6 sm.dagi harorati $8-9^{\circ}\text{C}$ bo'lganda 3-4 sm chuqurlikda, gektariga 10-12 kg me'yorda 60 sm qator oralig'ida ekilgan. Urug'lar ekilgan kundan boshlab, har 3 kunda unib chiqish dinamikasi o'rganilgan.

Tajribaning dastlabki yilida (2023 y) olingan ma'lumotlarga ko'ra, xashaki lavlagini urug'lari bir kunda ekilganligi sababli unib chiqish dinamikasida tajriba variantlari o'rtasida deyarli farq kuzatilmagan. Dastlabki yilda xashaki lavlagi 13.04. da ekilgani uchun u ekilganidan 3 kun o'tgandan keyin, ya'ni 16.04. da urug'lar variantlar bo'yicha o'rtacha 15,4-18,7 % unib chiqqan bo'lsa, 6 kun o'tgandan keyin (19.04) 41,2-46,2 %, 9 kundan keyin 62,1-68,2 %, ekishning 11-12-kunlari esa 85,4-87,3 % ni tashkil etgan. Tajribaning ikkinchi yilida ham shu kabi qonuniyatlar takrorlanib, faqat xashaki lavlagi 20.04. kuni ekligani sababli unib chiqish jarayoni nisbatan ertaroq boshlanib, 3-kundan keyin 17,5-20,9 % ni, 9

kuni 64,9-70,3 %, 11-12 kunlari esa 85,8-88,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, tajribaning uchinchi yilida urug'lar nisbatan ertaroq, ya'ni 08.04 kuni ekilganligi sababli unib chiqish darajasi pastroq bo'lib, 3 kundan keyin 13,3-16,75 % ni, 6 kundan keyin 39,1-44,2 %, 11-12 kunlari esa 83,1-86,2 % ni tashkil etgan.

Ko'chat qalinligi ham ma'dan o'g'itlar me'yorlarini xashaki lavlagining barglar soni va massasiga ta'siri o'rganilgan bo'lib, 2023-yil iyun oyida olingan ma'lumotlarga ko'ra, tajriba variantlarida bitta o'simlikdagi barglar soni o'rtacha 8,6 donadan 18,7 donani, massasi esa 42,1 grammdan 74,1 g.ni tashkil etgan. Iyul oyida esa mazkur ko'rsatkichlar 16,7 donadan 32,0 donani, massasi 142,1 grammdan 183,4 grammni tashkil etgan. Bir oy ichida o'rtacha barglar soni 8,0-12,0 donaga, massasi esa 90-100 grammga oshganligini aniqlangan. Demak, xashaki lavlagida barglar rivojlanishining eng yuqori darajasi iyul oyida kuzatilgan.

Ko'chatlar sonini oshirib borilishi bilan ularda barglar sonini yuqori bo'lishi kuzatilgan. Tajribaning ko'chat qalinligi 70-80 mingga bo'lgan 2, 3 va 4-variantlarida barglar soni mos ravishda 34,1; 38,6; 43,1 donani tashkil etgan bo'lsa, ko'chat qalinligi 90-100 ming/ga bo'lgan 6, 7 va 8-variantlarda 38,7; 41,2; 45,3 dona, ko'chat qalinligi 110-120 ming/ga bo'lgan 10, 11, 12-variantlarda esa 40,3; 42,8; 45,9 dona bo'lganligi aniqlangan. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xashaki lavlagida ko'chat qalinligi gektariga 70-80 ming.donadan 90-100 ming.donaga oshirilganda barglar soni 2,2 donadan 4,6 donagacha, 110-120 ming.donaga oshirilganda esa 2,8 donadan 6,2 donaga ko'p bo'lganligi aniqlangan. Ta'kidlash kerakki, xashaki lavlagi bargini shakllanishida ma'dan o'g'itlarni ta'siri ham kuzatilgan. Ko'chat qalinligi gektariga 70-80 ming dona, ma'dan o'g'it me'yorlari NPK 120:90:60 kg/ga bo'lgan 2-variantda barglar soni 34,1 donani tashkil etgan bo'lsa, o'g'itlar me'yori NPK 160:120:80 kg/ga bo'lgan 3-variantda 38,6 donani, NPK 200:140:100 kg/ga bo'lgan 4-variantda esa 43,1 donani tashkil etgan. Ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming dona bo'lgan, ma'dan o'g'it me'yorlari NPK 120:90:60 kg/ga bo'lgan 6-variantda barglar soni 38,7 donani tashkil etgan bo'lsa, o'g'itlar me'yori NPK 160:120:80 kg/ga bo'lgan 7-variantda 41,2 donani, NPK 200:140:100 kg/ga bo'lgan 8-variantda esa 45,3 donani tashkil etgan. Ko'chat qalinligi gektariga 110-120 ming.dona, ma'dan o'g'it me'yori NPK 120:90:60 kg/ga qo'llanilgan 10-variantda barglar soni 40,3 donani tashkil etgan bo'lsa, o'g'itlar me'yori NPK 160:120:80 kg/ga bo'lgan 11-variantda 42,8 donani, NPK 200:140:100 kg/ga bo'lgan 12-variantda esa 45,9 dona bo'lganligi aniqlangan.

Dissertasiya ish dasturiga asosan 2023-2025 yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarda ham xashaki lavlagida barg yuza maydoni hosil qilishiga ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlarini ta'siri ham o'rganilgan.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, xashaki lavlagida barglarni eng yuqori darajada, maksimal rivojlanish davri iyul oyi hisoblanagan. Shuning uchun barg yuza maydonini tahlil etishda 2023-yil 1-avgustda o'tkazilgan fenologik kuzatuvlardan olingan ma'lumotlarni tahlil etilgan. Barg yuza maydoni bo'yicha eng kam natijalar tajribaning nazorat o'g'itsiz 1, 5, 9-variantlarida kuzatilib, barg yuza maydoni mos ravishda 2475,4; 2675,4; 2739,1 sm² ni tashkil etgan. Ta'kidlash kerakki, xashaki lavlagida ko'chat qalinligini turli miqdorda bo'lishi

barg yuza maydoniga o'z ta'sirini ko'rsatganligi kuzatilgan. Ko'chat qalinligi gektariga 70-80 ming dona bo'lgan 2, 3, va 4-variantlarida barg yuza maydoni mos ravishda 3103,2; 3512,6; 3922,1 sm² ni tashkil etgan bo'lsa, ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming dona bo'lgan 6, 7, va 8-variantlarida tegishlicha 3521,7; 3749,2; 4122,3 sm² ni, ko'chat 110-120 ming dona bo'lgan 10, 11 va 12-variantlarda esa mos ravishda 2667,3; 3894,8; 4176,9 sm² ni tashkil etganligi aniqlangan.

Tadqiqotning dastlabki, 2023-yilida olingan ma'lumotlarga ko'ra, tajribaning o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantlarida ko'chat qalinligidan qat'iy nazar barglardagi quruq massa eng kam miqdorda to'planganligi aniqlangan. Bunda tajribaning ko'chat qalinligi 70-80 ming/ga bo'lgan 1-variantida mazkur ko'rsatkich (1.08.da) 28,5 g.ni tashkil etgan bo'lsa, 90-100 ming/ga bo'lgan 5-variantda 29,7 g.ni, 110-120 ming/dona bo'lgan 9-variantda esa 29,9 g.ni tashkil etgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'simlik barglari quruq massasi bo'yicha ko'chat qalinliklaridan qat'iy nazar unchalik katta farqlar kuzatilmagan. Ko'chat qalinligi 70-80 ming, ma'dan o'g'itlar me'yori NPK 120:90:60 kg/ga bo'lgan 2-variantida bargning quruq massasi 31,7 g.ni tashkil etgan bo'lsa, xuddi shu ma'dan o'g'itlar me'yorida ko'chat qalinligi 90-100 ming/dona bo'lgan 6-variantda 32,9 g.ni, ko'chat 110-120 ming.dona bo'lgan 10-variantda esa mazkur ko'rsatkich 33,3 g.ni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar boshqa me'yordagi ma'dan o'g'itlarda parvarish qilinganda ham xuddi shu kabi qonuniyatlar kuzatilgan. Ma'dan o'g'itlarni NPK 160:120:90 kg/ga me'yorida ko'chat qalinligi 70-80 ming/ga bo'lgan 3-variantda barg quruq massasi 33,0 g.ni tashkil etgan bo'lsa, shu ma'dan o'g'itlar me'yorida ko'chat 90-100 ming dona bo'lganda 33,6 g.ni, 110-120 ming/dona bo'lganda esa 33,8 g.ni tashkil etgan. Ma'dan o'g'it me'yorini yanada oshirib, uni NPK 200:140:100 kg/ga me'yorga yetkazib, ko'chat gektariga 70-80 ming.dona bo'lganda barg quruq massasi 34,7 g.ni, 90-100 bo'lganda 34,8 g.ni, 110-120 ming/dona bo'lganda 35,0 g.ni tashkil etgan. 2024-2025-yillarda ham yuqoridagi qonuniyat saqlanib qolgan.

Xashaki lavlagi ildizmevasining uzunligi va diametriga ko'chat qalinliklarini ta'siri bo'yicha dastlabki (2023 y.) yilning amal davri oxirida olingan ma'lumotlarga ko'ra, tajribaning ko'chat qalinligi gektariga 70-80 ming dona bo'lgan 1, 2, 3 va 4-variantlarida xashaki lavlagining ildizmeva uzunligi variantlarga mos ravishda 18,5; 21,6; 24,5 va 26,3 sm.ni tashkil etgan bo'lsa, ko'chat gektariga 90-100 ming dona bo'lgan 5, 6, 7 va 8-variantlarida 20,1; 23,6; 27,0 va 26,6 smni, ko'chat qalinligi gektariga 110-120 ming dona bo'lgan 9, 10, 11 va 12-variantlarda esa mos ravishda 21,5; 26,3; 27,7 va 28,5 sm.ni tashkil etgan. Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xashaki lavlagida ko'chat qalinligini oshishi, oziqlanish maydoni kamayib borishi bilan ildizmeva uzunligi ham ortib borgan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlil etilganda, ko'chat qalinligini gektariga 70-80 ming.donadan 90-100 ming.donaga oshirilganda ildizmeva uzunligi 1,6 sm.dan 2,5 sm.gacha, 110-120 ming.donaga oshirilganda esa 2,2 sm.dan 4,7 sm.ga uzunroq bo'lganligi aniqlangan.

O'simlik ildizmevasini diametri bo'yicha olingan ma'lumotlar ildizmeva uzunligi bo'yicha olingan ma'lumotlarga nisbatan teskari bo'lganligi qayd etilgan. Ko'chat qalinligi gektariga 70-80 ming.dona bo'lgan variantlarida (1, 2, 3, 4-var)

ildizmevaning diametri mos holda 11,5; 16,34 18,4 va 20,2 sm.ni tashkil etgan bo'lsa, ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming.dona bo'lgan 5, 6, 7 va 8-variantlarda esa tegishli 9,8; 14,6; 15,5 va 15,7 sm.ni, ko'chat qalinligi gektariga 110-120 ming dona bo'lgan 9, 10, 11 va 12-variantlarda mazkur ko'rsatkich mos xolda 9,6; 14,7; 14,9 va 15,6 sm. bo'lganligi aniqlangan. Ko'chat qalinligi ortib borgan sari ildizmeva diametri kichrayib borishi qayd etilgan. Masalan, ko'chatlar soni gektariga 90-100 ming dona bo'lganda ko'chat soni gektariga 70-80 ming.donaga nisbatan ildizmeva diametri 1,7-4,5 sm.ga, ko'chat qalinligi 110-120 ming.donaga oshirilganda esa 1,9-4,6 sm.ga kichik bo'lgan.

Xashaki lavlagi ildizmeva massasiga ko'chat qalinligini ta'siri bo'yicha tajribaning dastlabki (2023 y.) yilining amal davri oxirida olingan ma'lumotlarga ko'ra, ko'chat qalinligi 70-80 ming/ga bo'lgan variantlarda bitta o'simlik ildizmevasining massasi eng yuqori bo'lganligi qayd etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, tajribaning 1, 2, 3 va 4-variantlarida ildizmeva massasi tegishli 387,0; 692,3; 743,7; 795,4 g.ni tashkil etgan bo'lsa, ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming.dona bo'lgan 5, 6, 7, 8-variantlarda mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 328,0; 615,1; 689,2; 703,3 g.ni tashkil etgan, ya'ni ko'chat qalinligini gektariga 20 ming donaga oshirilishi ildizmeva massasini o'rtacha 59,0 g.dan 92,1 g.gacha kam bo'lishiga olib kelgan. Ko'chat qalinligini 90-100 ming.donadan 110-120 ming.donaga yoki 20 ming.donaga ko'p bo'lgan variantlarda ildizmeva massasi o'rtacha mos ravishda 278,5; 488,6; 538,8; 560,1 g.ni tashkil etib, ko'chat 70-80 ming/dona bo'lgan variantlardan 203,7-235,3 g.ga, 90-100 ming/ga nisbatan esa 126,5-150,4 g.ga kam bo'lganligi aniqlangan. Demak, xashaki lavlagi parvarishida ko'chat qalinligini gektariga 70-80 ming donadan 20 ming donaga oshirilishi (90-100 ming/ga bo'lishi) ildizmeva massasini o'rtacha 59,0 g. dan 92,1 g.gacha, 40 ming donaga oshirilishi esa (110-120 ming/ga bo'lishi) 203,7 g. dan 235,3 g.gacha kam bo'lishiga olib kelgan.

Xashaki lavlagi ildizmeva hosildorligiga ko'chat qalinligini ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, tadqiqotda eng yuqori ko'rsatkichlar ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming.dona bo'lgan variantlarda aniqlangan.

Tajribaning ko'chat qalinligi gektariga 90-100 ming.dona, ma'dan o'g'itlar me'yori NPK 120:90:60 kg/ga bo'lgan 6-variantda ildizmeva hosildorligi uch yilda o'rtacha 576,0 s/gani tashkil etgan bo'lsa, ko'chat qalinligi 70-80 ming dona bo'lgan, xuddi shu me'yorida ma'dan o'g'itlar qo'llanilgan 2-variantda esa 522,5 s/gani, ko'chat qalinligi gektariga 110-120 ming.dona bo'lgan 10 variantda esa mazkur ko'rsatkich 559,2 s/gani tashkil etgan. Bunda ko'chat qalinligi 90-100 ming/ga bo'lgan 6-variantda ildizmevaning qo'shimcha hosili gektariga 70-80 ming dona ko'chat bo'lgan 2-variantga nisbatan 53,5 s/ga, gektariga 110-120 ming dona ko'chat bo'lgan 10-variantga nisbatan esa 36,7 s/ga bo'lganligi aniqlangan. Ko'chat qalinligini ta'siri bo'yicha xuddi shunday qonuniyatlar tajribaning boshqa variantlarida ham kuzatilib, ma'dan o'g'itlar me'yori NPK 160:120:80 kg/ga bo'lgan 7-variantda (ko'chat qalinligi 90-100 ming/dona.ga) ildizmeva hosildorligi o'rtacha 651,4 s/gani, 3-variantda (ko'chat qalinligi 70-80 ming/dona.ga) 564,0 s/gani, 11-variantda (ko'chat qalinligi 110-120 ming/dona.ga) esa 613,2 s/gani tashkil etgan. Bunda qo'shimcha hosil mos ravishda 87,4; 49,2 s/ga bo'lganligi kuzatilgan (1-jadval).

Ma'dan o'g'itlash me'yori yuqori bo'lgan NPK 200:140:100 kg/ga bo'lgan 8-variantda (ko'chat qalinligi 90-100 ming/dona.ga) ildizmeva hosildorligi o'rtacha 670,7 s/gani, 4-variantda (ko'chat qalinligi 70-80 ming/dona.ga) 610,7 s/gani, 12-variantda (ko'chat qalinligi 110-120 ming/dona.ga) esa 646,5 s/gani tashkil etgan. Bunda qo'shimcha hosil mos ravishda 60,0; 35,8 s/gani tashkil etgan. Xashaki lavlagi ildizmeva hosildorligiga ko'chat qalinliklari ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, xashaki lavlagidan yuqori ildizmeva hosili olish uchun eng maqbul ko'chat qalinligi 90-100 ming/ga hisoblanib, ko'chat qalinligi 70-80 ming donaga nisbatan 53,5-87,4 s/ga, 110-120 ming/ga nisbatan esa 16,2-38,2 s/ga miqdorida qo'shimcha ildizmeva hosili olishni ta'minlagan.

1-jadval

Ko'chat qalinligi va ma'dan o'g'it me'yorlarini xashaki lavlagining ildizmeva hosildorligiga ta'siri, s/ga (2023-2025 yillarda o'rtacha)

Var №	Ko‘chat qalinligi, ming/ga	Ma‘dan o‘g‘it me‘yorlari, kg/ga	2023 yil	2024 yil	2025 yil	Uch yilda o‘rtacha	Qo‘shimcha hosil	
